

60810700 - Tuproqshunoslik

bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

60810700 - Tuproqshunoslik bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

Tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi - fan va qishloq xo'jaligi sohasidagi yo'nalish bo'lib, u qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilmiy asoslangan tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, tuproq resurslari va atrof-muhitni muhofaza qilish; mahalliy va mineral o'g'itlardan oqilona foydalanishdagi inson faoliyati vositalari, usul va uslublarining majmuasini o'z ichiga oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- korxona, tashkilot va fermer xo'jaliklari; agrosanoat majmuasi boshqarmalari; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi korxonalari; qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha ilmiy tashkilotlar; qishloq xo'jalik ishlab chiqarish komplekslarini boshqarish; tuproqshunoslik va agrokimyoda ishlab chiqarish jarayonlarini sintez, tahlil qilish va yaxshilash, ekologik toza mahsulot sifatini ta'minlash usullarini qo'llash; tuproq, o'simlik va o'g'itlarning sifat tahlillarini o'tkazish; harakatchan fosfor va kaliy miqdori bo'yicha agrokimyoviy xaritagrammalar tuzish; o'g'itlarni qo'llash texnologiyasi va ishlab chiqaruvchi tashkilotlar; asosiy ekinlarga o'g'it qo'llash tizimi; tuproqshunoslik va agrokimyo sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni umum qabul qilingan uslublar bo'yicha olib borish, olingan natijalarga statistik ishlov berish;

- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

-tuproqshunoslik va agrokimyo tashkilotlari va korxonalarini boshqarish tizimlari.

- korxona, tashkilot va fermer xo'jaliklari; agrosanoat majmuasi boshqarmalari; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi korxonalari; qishloq xo'jaligi

yoʻnalishi boʻyicha ilmiy tashkilotlar; qishloq xoʻjalik ishlab chiqarish komplekslarini boshqarish; tuproqshunoslik va agrokimyoda ishlab chiqarish jarayonlarini sintez, tahlil qilish va yaxshilash, ekologik toza mahsulot sifatini taʼminlash usullarini qoʻllash; tuproq, oʻsimlik va oʻgʻitlarning sifat tahlillarini oʻtkazish; harakatchan fosfor va kaliy miqdori boʻyicha agrokimyoviy xaritagrammalar tuzish; oʻgʻitlarni qoʻllash texnologiyasi va ishlab chiqaruvchi tashkilotlar; asosiy ekinlarga oʻgʻit qoʻllash tizimi; tuproqshunoslik va agrokimyo sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni umum qabul qilingan uslublar boʻyicha olib borish, olingan natijalarga statistik ishlov berish;

- ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

- tuproqshunoslik va agrokimyo tashkilotlari va korxonalarini boshqarish tizimlari.